

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN INKLYUZIV
TA‘LIM FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN INKLYUZIV TA‘LIM FANIDAN MALAKA TEST SINOVİ TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Inklyuziv ta‘lim fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Inklyuziv ta‘lim

1. Inklyuziv ta‘limning metodologik va nazariy asoslari;
2. Alohida ta‘lim olish ehtiyoji bo‘lgan bolalar inklyuziv ta‘limining xususiyatlari;
3. Inklyuziv ta‘lim texnologiyalari.

Defektologiya

1. Defektologiya fanining umumiy masalalari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Inklyuziv ta'limning metodologik va nazariy asoslari	Inklyuziv ta'lim tushunchasi, inklyuziv ta'lim tamoyillari, inklyuziv ta'limni rivojlantirishning xalqaro huquqiy asoslari, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy asoslari, nogironlik modellariga doir bilimlarga ega bo'ladi.	10 ta
2	Alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limining xususiyatlari	Inklyuziv ta'limga jalb etiladigan alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar toifalarini ajrata olish, rivojlanish nuqsonlarining kelib chiqish sabablari, eshitishida, ko'rishida, nutqida, tayanch-harakat apparatida, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, autizmi bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilish, inklyuziv guruhlarga alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni saralash tartibiga doir bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	17 ta
3	Inklyuziv ta'lim texnologiyalari	Alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar individual ta'lim yo'nalishini yuritish, inklyuziv ta'lim muhitida pedagoglar faoliyatining mazmuni, inklyuziv ta'limda oila bilan hamkorlik shakllari, inklyuziv guruhlarda predmetli-rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish, inklyuziv ta'lim texnologiyalariga doir bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	10 ta
4	Defektologiya fanining umumiy masalalari	Defektologiya fani, uning predmeti, maqsadi va vazifalariga doir bilimlarga ega bo'ladi.	10 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %

3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %
----	------------------------	---	------

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig‘ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me‘yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Ayupova M.Y. Logopediya. T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007. - 559 b.
2. Arslanova M.M. Inklyuziv ta’lim: o‘quv qo‘llanma /. - Toshkent: 2025.
3. Волосовец Т.В., Кутепова Е.Н. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Пособие для педагогов дошкольных учреждений. М.: МОЗАИКА-СИНТЕЗ, 2011.

4. Mirziyoyeva Sh.Sh. va b. Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini individuallashtirish. alohida ehtiyojli bolalar inklyuziyasi. Metodik qo'llanma. T.: 2020
5. Mo'minova L.R. va b. Maxsus psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2018., 302 b.
6. Hamidova M.U. Maxsus pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: NIF MSH. 2020.
7. Епифанцева Т.Б. Настольная книга педагога-дефектолога/ Под ред. Епифанцева Т.О.; 2-е изд. - Ростов н/Д: Феникс, 2007.
8. Defektologiya asoslari V.S.Rahmanova Toshkent-"Niso poligraf" 2014.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*